

“O‘QUVCHILARDA MUSTAQIL O‘RGANISH MOTIVATSIYASINI
OSHIRISHDA GAMIFIKATSIYA METODLARINING SAMARADORLIGI”

Turg’unboyeva Arofatxon Otabek qizi

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari Universitetining xorijiy til va adabiyot

1-fakultetining 2-kurs talabasi

E-mail: arofatxon2006@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish motivatsiyasini oshirishda gamifikatsiya metodlarining samaradorligini tahlil qiladi. Motivatsiya ta‘lim jarayonining muhim omili bo‘lib, o‘quvchilarning faolligi va mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini belgilaydi. Maqolada gamifikatsiya tushunchasi, uning pedagogik qadri va o‘quv jarayonida qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Amaliy qismda 2-kurs talabalarida mini-quizlar, badges va ball tizimi orqali gamifikatsiya metodlari qo‘llanilib, natijalar o‘quvchilarning darsga qatnashishi va mustaqil ishlash motivatsiyasining oshganligini ko‘rsatdi. Xulosa qilib aytganda, gamifikatsiya metodlarini dars jarayoniga kiritish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi va kelajakda individual yondashuv bilan uyg‘unlashtirilishi tavsiya etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Gamifikatsiya, ta‘lim motivatsiyasi, mustaqil o‘rganish, pedagogik metodika, faollik va rag‘batlantirish.*

Motivatsiya – ta‘lim jarayonining muhim elementi bo‘lib, talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. So‘nggi yillarda gamifikatsiya metodlari o‘quvchilarda motivatsiyani oshirishda samarali vosita sifatida tan olinmoqda. **Gamifikatsiya** – o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga kiritish orqali talabalarning qiziqishini oshirishni nazarda tutadi. Gamifikatsiya – bu o‘yin elementlarini o‘yin bo‘lmagan kontekstlarda qo‘llash bo‘lib, til o‘rganishda istiqbolli metodologik vosita sifatida e‘tirof etilmoqda. Ushbu tadqiqot ingliz tilini chet tili sifatida (EFL) o‘rgatiladigan darslarda gamifikatsiyaning o‘quvchi motivatsiyasi va til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ta‘sirini o‘rganadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiya o‘quvchilarning darsda ishtirok etishini oshiradi, ichki motivatsiyani kuchaytiradi hamda lug‘at va grammatikani o‘zlashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ta‘lim sifatini oshirishda muhim omillardan biridir. Bu borada pedagogning roli katta ahamiyatga ega, chunki u o‘quvchilarni faol ishlashga, izlanishga va yangi

bilimlarni o‘zlashtirishga undaydi. O‘zbekistonlik olimlar ham motivatsiyani shakllantirish masalasini tadqiqotlarida alohida ko‘rib chiqqanlar.

Masalan, professor D. Yo‘ldosheva o‘quvchilarda ta‘limga nisbatan motivatsiyani shakllantirishda o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari — samimiylik, tushunuvchanlik va ob‘ektivlik — muhimligini ta‘kidlaydi. Unga ko‘ra, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ishonchli munosabat darsga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. I. Jo‘rayev esa motivatsiyani oshirishda individual yondashuv, differensial ta‘lim va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash samarali natija berishini qayd etadi. Ayniqsa, o‘quvchining bilim darajasi, psixologik xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta‘limni tashkil etish motivatsiyani yanada kuchaytiradi.

B. Qodirova o‘z tadqiqotida zamonaviy interaktiv metodlar — masalan, “aqliy hujum”, “klaster”, “muammoli vaziyatlar” va “bahsli savollar” — yordamida o‘quvchilarni darsga faol jalb qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu metodlar nafaqat motivatsiyani oshiradi, balki mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, baholash tizimi ham motivatsiyaga katta ta‘sir qiladi. E. Raxmonovning fikricha, o‘quvchini faqat tanqid qilmasdan, balki uning muvaffaqiyatlarini e‘tirof etish va rag‘batlantirish motivatsiyaning davomiy bo‘lishini ta‘minlaydi.

S. Sodiqova esa o‘qituvchining shaxsiy namunasi, mehribonligi va bilimdonligi o‘quvchilarni rag‘batlantirishda eng kuchli ichki omil ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan, o‘zbek olimlari motivatsiyani shakllantirishda pedagogning faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan yetakchi sifatida muhim rol o‘ynashini asoslab berishgan.

Amaliy bosqichda 2-kurs talabalari ishtirokida kichik hajmdagi tajriba (mini-experiment) o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 20 nafar talaba qatnashdi. Dars jarayonida talabalar bilimni oshirish va motivatsiyani kuchaytirish maqsadida mini-quizlar hamda badges (rag‘bat belgilar) tizimidan foydalanildi.

Quiz savollari dars mavzusiga mos ravishda tuzildi va quyidagi turdagi topshiriqlarni o‘z ichiga oldi:

- multiple-choice savollar (grammatika va vocabulary bo‘yicha),
- gapni to‘ldirish (fill-in-the-blank),
- qisqa javobli savollar,
- kichik situatsion savollar (real communication context).

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning taxminan 90% qismi darsdagi faollik va uy vazifalarini bajarish borasida ijobiy o‘shish ko‘rsatdi. Ularning darsga qatnashish darajasi oshdi hamda topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish ko‘rsatkichi yaxshilandi. Shu bilan birga,

talabalar mustaqil o‘rganishga nisbatan qiziqish bildirganliklari kuzatildi. Biroq, ayrim talabalar (taxminan 10%) quiz tizimiga nisbatan yuqori qiziqish bildirmadi.

Mini-quiz va badges tizimining ijobiy jihatlari:

- Talabalarning e‘tibori dars davomida jamlandi.
- Raqobat muhiti motivatsiyani oshirdi.
- Tezkor fikrlash va bilimni mustahkamlashga yordam berdi.
- Baholash jarayoni shaffof va interaktiv bo‘ldi.

Dars davomida ortiqcha muloqot kamayib, talabalar ko‘proq topshiriqqa e‘tibor qaratdi (bu ayrim hollarda intizomiy jihatdan ijobiy natija berdi).

Salbiy jihatlari:

Internet bilan bog‘liq muammolar quiz jarayonida qiyinchilik tug‘dirdi (platforma qotib qolishi, ulanishning uzilishi).

Ayrim talabalar faqat ball olishga e‘tibor qaratib, chuqur tushunishga kamroq ahamiyat berdi.

Jamoaviy muloqot va erkin muhokama vaqt jihatidan qisqardi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tajriba gamification elementlari (mini-quiz va badges) talabalarning o‘quv motivatsiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Biroq, texnik infratuzilma va metodik muvozanat (muloqot va raqamli faoliyat o‘rtasida) muhim omil ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/13186/17404>
2. Jo‘rayev, I. (2018). Individual yondashuv va differensial ta‘limning motivatsiyaga ta‘siri. Tashkent: Ta‘lim nazariyasi va amaliyoti jurnal.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/gamifikatsiya-til-organishda-uslubiy-vosita-sifatida>
4. Yo‘ldosheva, D. (2020). O‘quvchilarda ta‘limga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirishda o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari. Tashkent: O‘zbekiston Pedagogika Universiteti.
5. Qodirova, B. (2019). Zamonaviy interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarni darsga jalb qilish. Tashkent: Pedagogik texnologiyalar ilmiy jurnali.
6. Raxmonov, E. (2021). Baholash tizimi va o‘quvchilarda motivatsiyaning davomiyligi. Tashkent: Oliy ta‘limda innovatsiyalar.
7. Sodiqova, S. (2020). O‘qituvchining shaxsiy namunasi va o‘quvchilarning rag‘batlanishi. Tashkent: Ta‘lim metodikasi jurnal.